



TOG‘AY MURODNING “OTAMDAN QOLGAN DALALAR” ROMANIDA TARIXIY HAQIQAT VA BADIY MAHORAT, ROMANNING AXLOQIY- DIDAKTIK AHAMIYATI

Djurakulova Elmira Suyunovna

*Toshkent davlat yuridik universiteti
huzuridagi akademik litsey o‘qituvchisi, f.f.n.*

***Annotatsiya.** “Otamdan qolgan dalalar” romani o‘zbek adabiyotidagi tarixiy-badiiy asarlar sirasiga kirib, unda xalqimizning o‘tgan zamonlar hayoti, urf-odatlarini, ijtimoiy-siyosiy holati badiiy mahorat bilan tasvirlanadi. Asarda tarixiy haqiqatga sodiqlik bilan yondashilib, o‘tmishdagi voqealar obrazlar orqali jonlantiriladi. Muallif tarixiy shaxslar, ularning ijtimoiy faoliyati va zamonasiga xos voqeliklarni haqqoniy yoritish barobarida, badiiy tasvir vositalari orqali o‘quvchini chuqur mushohadaga chorlaydi.*

Romanda axloqiy-didaktik g‘oyalar ham markaziy o‘rin egallagan bo‘lib, unda avlodlar o‘rtasidagi bog‘liqlik, ota merosiga sadoqat, halollik, vatanparvarlik, sabr-toqat kabi ezgu qadriyatlar targ‘ib qilinadi. Asarning har bir sahmasi o‘quvchini faqat tarix bilan tanishtiribgina qolmay, balki ma‘naviy yuksalishga undaydi. Shu bois romanning estetik, axloqiy va tarbiyaviy ahamiyati beqiyosdir.

***Kalit so‘zlar:** axloqiy-didaktik, badiiy mahorat, tarixiy haqiqat, halollik, ijtimoiy-siyosiy vaziyat, badiiy tasvir.*

KIRISH

Adabiyot – bu faqat tasvir emas, balki xalqning kechmish taqdiri, ruhiy olami, tarixiy xotirasi va umidlarini ifodalovchi kuchli san‘at vositasidir. Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romani o‘zbek adabiyotida tarixiy haqiqat bilan badiiy mahorat uyg‘unligining yorqin namunasi bo‘lib, unda XX asrning og‘riqli ijtimoiy jarayonlari o‘ziga xos uslubda ifoda etiladi.

Tarixiy haqiqatning aks ettirilishi

Roman syujeti asosan sovet davrining kolxozlashtirish siyosati, dehqonchilikka, mulkchilikka bo‘lgan munosabat va odamlarning bu o‘zgarishlar fonida kechirgan ruhiy iztiroblari ustiga qurilgan. Bu holat tarixiy haqiqatga asoslangan bo‘lib, o‘zbek xalqining hayotida chuqur iz qoldirgan bir davrni tasvirlaydi. Asarda shaxsiy mulkning tortib olinishi, meros tushunchasining yo‘qolib borishi, mehnatga munosabatdagi o‘zgarishlar aniq va ta’sirli bayon etilgan.

“Otamdan qolgan dalalar” romanining nomiyoq ajdod va avlod o‘rtasidagi vatan nomli umumiy, eskirmas, navqiron makonni yodga soladi. Asar nasrda bitilgan, o‘z yurtida ro‘shnolik ko‘rmay, qalbi iztirobda, yelkasi oftobda kuygan dehqonqullur haqida lirik qo‘shiq. Tog‘ay Murod ta’biri bilan aytganda, o‘zbek xalqiga qo‘yilgan haykal. Bir sulola timsolida ko‘rsatib berilgan xalq boshida necha zamonlar qora bulut bo‘lgan yog‘iyning millat boshiga solgan qora kunlari haqidagi marsiya.



Volume: 3 Issue: 1

Undagi Jamoliddindan boshlanib Dehqonqulgacha, hirmon boshidagi tarozibondan beshikdagi bolagacha – har bir personajning bir-birini takrorlamaydigan fojeasi bor.

Mutolaa davomida menga ayol hayotining fojialari dehqonqullarnikidan ko‘ra bo‘rtibroq ko‘rindi. Guljamol, Bolxin, Qumri, Oysuluvlarning rangsiz, qora mehnatga qorishib qolgan hayoti davrning naqadar kambag‘alligini, insonlarning insonlar tomonidan uyushtirilgan fojia qarshisidagi ojizligini ko‘rsatib bergan. Muxbirning ismingiz kim degan savoliga “paxta”, kasbingiz nima degan savoliga “paxtakor” deb hasrat va nafrat ohangida javob bergan Bolxin momoning 80 yil umri chanoqlarga ilinib tugayotgani zamon o‘ziga moslab olgan Dehqonqulni – o‘g‘ilni bezovta qilmaydi. O‘ziga o‘t qo‘yayotgan ayollarning ham uyida bittadan dehqonqullar bor. Orzu-armonlari beshikka bitilgan, vitamin yetishmasligidan bolasi nogiron bo‘lib tug‘ilgan, paxta yetishtirib xonatlas olib berishga qurbi yetmagan agronomning bosh qorong‘u bo‘lgan xotiniga bitta qizil olma olib berolmagan lavhalarini o‘qir ekansiz qullik, zo‘ravonlikning eng ayanchli qismati aks etgan bu davrning ayanchli taqdirlari beixtiyor ko‘zga yosh keltiradi. Chor Rossiyasi tomonidan g‘ururi, ori, o‘zligi, vatan tuyg‘usi-da falajlantirilgan dehqonqullar. Ular ota-bobolari o‘tmishda kim bo‘lganini o‘ylab ko‘rmaganlaridek, nozik xilqatning yelkasiga tushayotgan yuklar haqida o‘ylab ko‘rmaganlar, shuning sababindan paxtazorga aylantirilgan vatanning har burchida har kuni ayollar o‘zlariga o‘t qo‘yadi. Va bu fojeani yopish maqsadida nechtasiga “aqliy noqisligi” uchun o‘zini kuydirgani haqida hujjat to‘ldiriladi. Ba‘zisi dehqonqullar bunga qarshilik qiladi, ba‘zilari qarshilik ham qilmagandir. Xalq boshidagi sho‘rolar hukumati ularni manqurt kimsaga aylantirgan.

Badiiy mahorat: uslub va obrazlar

Tog‘ay Murod asarda badiiy vositalardan samarali foydalangan. Tilda xalqona ifodalar, shevaga xos nutq shakllari, obrazli tasvirlar ko‘p uchraydi. Asar qahramonlari – otasidan qolgan dalalarni asrab qolishga urinayotgan insonlar obrazi orqali muallif milliy g‘urur, yurtga sadoqat, ona yerga mehr kabi tushunchalarni yuksak badiiy darajada yoritadi.

Muallif tabiat manzaralarini, dehqonchilik hayotining murakkab jihatlarini poetik tasvirlar bilan berib, o‘quvchini o‘ziga rom etadi. Ayniqsa, otadan qolgan dalalar ramziy ma‘no kasb etib, o‘zbek xalqining azaliy qadriyatlarini, mustaqillik istagi va erkinlikka intilishini ifoda etadi.

Asarda inson va yer, avlodlar o‘rtasidagi bog‘liqlik, mehnatga sadoqat, ajdodlar vasiyatiga hurmat kabi muhim hayotiy qadriyatlar yuksak badiiy saviyada



Volume: 3 Issue: 1

tasvirlangan. Ushbu asar orqali muallif nafaqat o‘z davrining ijtimoiy muammolarini ochib beradi, balki o‘quvchini axloqiy jihatdan tarbiyalaydi.

Romanning bosh g‘oyasi – yerga muhabbat orqali hayotga sadoqatni anglashdir. Asarda otadan qolgan dalalarni asrab-avaylash, uni meros sifatida avloddan avlodga yetkazish, mehnatning qadri kabi tushunchalar tarbiyaviy mazmunga ega. Qahramonlar qalbidagi otaga, yerga, ajdodlar merosiga nisbatan bo‘lgan hurmat o‘quvchini o‘ylantiradi, o‘z qadriyatlariga yangicha nigoh bilan qarashga undaydi.

Roman obrazlaridagi sadoqat, halollik, mehnatsevarlik kabi fazilatlar yosh avlod uchun ibrat maktabidir. Tog‘ay Murod oddiy bir dehqon oilasining hayotini tasvirlar ekan, millatning eng muhim axloqiy asoslarini ilgari suradi. Shu sababli ham asar didaktik jihatdan nihoyatda boy va ta’sirli hisoblanadi.

“Otamdan qolgan dalalar” – yangi avlod uchun hayot darsi

Adabiyot nafaqat estetik zavq bag‘ishlaydi, balki hayotiy saboqlar manbaidir. Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romani yosh avlodga hayotning chinakam darslarini beruvchi asardir. Unda milliy o‘zlikni anglash, qadriyatlarga sadoqat, otalarning merosiga hurmat singari dolzarb mavzular yoritilgan.

Romanning asosiy syujeti – dehqonchilik, ota yodi, meros qolgan dalalar atrofida kechadi. Bu dalalar oddiy yer emas – ular ajdodlar mehnatining, orzu-umidlarining, ma’naviy merosining timsolidir. Shu jihatdan asar yoshlar uchun otanonaga sadoqat, yurtga muhabbat, mehnatga halollik bilan yondashish bo‘yicha amaliy hayot darsini beradi.

Qahramonlarning harakati, qarashlari orqali muallif yoshlarga sabr, bardosh, ajdodlarga munosabat, vatanparvarlik haqida bevosita nasihat qilmaydi, balki hayotiy voqealar vositasida ularni his qildirishga erishadi. Bu esa asarning didaktik ahamiyatini kuchaytiradi.

Zamonaviy o‘quvchilar uchun bu asar o‘z milliy ildizini anglash, boy ma’naviy merosni qadrlash va uni saqlab qolish zarurati haqida chuqur mushohada uyg‘otadi. Shu bois, “Otamdan qolgan dalalar” nafaqat badiiy, balki tarbiyaviy jihatdan ham bebaho asar hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ushbu roman – tarixiy haqiqatni badiiy haqiqat bilan uyg‘unlashtirgan, xalq hayotini chuqur va samimiy aks ettirgan asarlardan biridir. Tog‘ay Murod bu asar orqali nafaqat o‘z davrining ijtimoiy muammolariga e’tibor qaratadi, balki badiiy yondashuv orqali o‘quvchini o‘ylantirishga, o‘z tarixiga qayta nazar tashlashga undaydi. Asarda tarixiylik va badiiyatning samarali uyg‘unligi

THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE



Volume: 3 Issue: 1

o‘zbek adabiyotining boy imkoniyatlarini yana bir bor namoyon etadi va kitobxonning vatanparvarlik tuyg‘ularini tarbiyalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Men qaytib kelaman” Tog‘ay Murod zamondoshlari xotirasida. To‘plovchi: Ma’suma Ahmedova. –T.: 2008.
2. T.Murod Otamdan qolgan dalalar. –T.: 1994.
3. O‘rozov A. T.Murodning “Otamdan qolgan dalalar” asarining til xususiyatlari haqida // Til va adabiyot ta’limi. 2009. 5-son, 45-47-b.

